

Namangan viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi hodimi

Malika Davranova

Ilm-fandagi ayollar haqida gap ketarkan, ishlari hanuz boshqa tadqiqotlar uchun asos bo'layotgan olima — **Mariya Sklodovskaya-Kyuri**ni eslamay bo'lmaydi.

Fransiyaliklar Mariya Sklodovskaya-Kyurini o'z milliy qahramoni sifatida ulug'laydi, ammo uning hikoyasi o'sha vaqtarda Rossiya mustamlakasi hisoblangan Polshadan boshlanadi. 1867-yilning kech kuzida Varshavadagi oddiy o'qituvchi oilasida kun kelib dunyo va ilm-fan tarixida katta iz qoldirishi tasavvur ham qilinmagan beshinchi farzand — Mariya tug'iladi.

Uning otasi Vladislav Sklodovskiy erkaklar gimnaziyasi rahbari, matematika va fizikadan dars berar, polyak tilidan tashqari ingliz, fransuz va nemis tillarini bilar, she'rlar yozib, ahyon-ahyonda tarjima bilan ham shug'ullanardi. Onasi Bronislava Boguskaya esa Varshavadagi xotin-qizlar maktabini boshqarardi. Shunga qaramay, oila qiyinchilik bilan kun kechirardi.

Ijarada yashaydigan oila tinimsiz u xonadondan bu xonadonga ko'chishga majbur bo'ladi. Tavakkalchilik bilan boshlangan bir ish ortidan oila boshlig'i bor pulidan ayrıldi. Bu orada katta opasi va onasi xastalikdan vafot etadi — onasiz qolganida Mariya hali 12 yoshga ham to'lmagandi.

"Ilm-fan insoniyat hayotini osonlashtiradigan va uning azob-uqubatlarini kamaytiradigan har qanday taraqqiyotning asosidir", degan edi Mariya Sklodovskaya-Kyuri. Shuning uchun ham u, hayotning turli zarbalariga qaramay, yaxshi o'qishga harakat qilgan va oxir-oqibat mahalliy gimnaziyanı oltin medal bilan tamomlaydi. Baxtga qarshi, oldinda uni navbatdagi qiyinchilik kutardi — bu vaqtda Polshada xotin-qizlarning oliy ta'lim muassasalarida o'qishi taqiqlangan edi.

Ammo aynan shu to'siq Mariyaning hayotini butkul o'zgartiradi — u Fransiyaga borib o'qishga qaror qiladi. Lekin boshqa mamlakatda yashash va

o‘qishning o‘ziga yarasha xarajatlari bor, oilaning moddiy ahvoli esa — yuqorida ta’kidlanganidek. Shunda u o‘rtancha opasi Bronislava bilan kelishadi — opasi Parijda o‘qib qaytgunicha Mariya guvernantkalik (murabbiyalik) qilib pul topib, uni moddiy qo‘llab turadi, keyinroq esa Mariyaning Fransiyadagi o‘qishi uchun Bronislava ishlab beradi. Poyezdning eng arzon chiptasi bilan Fransiyaga yetib kelgan 24 yashar Mariyaning hayotida yangi sahifa ochiladi. U, bir vaqtlar o‘zi orzu qilganidek, Sorbonna universiteti tabiiy fanlar yo‘nalishiga 1825 talaba orasidagi 23 xotin-qizdan biri sifatida o‘qishga kiradi. Qizig‘i, o‘sha vaqtida Sorbonnada salkam 9 ming talaba tahsil olgan bo‘lsa, ularning atigi 210 nafaragina xotin-qizlar edi.

Maktabda imkon qadar yaxshi o‘qishga harakat qilganiga qaramay, matematika, fizika va fransuz tili borasidagi bilimlari oqsashini payqab, ular ustida ko‘proq va puxta shug‘ullanishga qaror qiladi. Shu maqsadda sharoitlari haminqadar bo‘lsa-da, kutubxonaga yaqinroq uyga ko‘chadi. Puli kam bo‘lsa-da, dars tayyorlashida hech kim xalal bermasligi uchun xonadosh ham olmaydi. O‘zidan pulni ayaydi; ovqat olishga pulini, taom tayyorlashga vaqtini qizg‘anib, bir safar ochlikdan hatto hushidan ketadi.

Ammo u hech nolimaydi, aksincha, o‘zi orzu qilgan sevimli ish bilan shug‘ullanayotganidan baxtiyor, o‘z ustida tinimsiz ishlardi. “Ko‘rgan va o‘rgangan hamma narsam meni baxtiyor etardi. Xuddi yangi bir dunyo, bilim dunyosiga qadam qo‘ygandim va bu dunyoni ortiq erkin kashf qilish imkoniyatiga ega edim”, deb yozgan Mariyaning o‘zi talabalik davrini eslab.

Ko‘p o‘tmay harakatlari samara bera boshlaydi: o‘qishni tugatar-tugatmas Fransiya milliy sanoatni rag‘batlantirish jamiyati, shuningdek, xorijda o‘qiydigan polshalik talabalar uchun tashkil etilgan Aleksandrovich jamg‘armasidan ilmiy yutuqlari uchun grant oladi. Mariya o‘qishni tamomlagach, ota-onasi kabi Varshavada o‘qituvchilik qilmoqchi edi. Ammo uning rejalarini fizikadagi faoliyati bilan dong taratgan Per Kyuri — bo‘lajak turmush o‘rtog‘i bilan uchrashuv o‘zgartirib yuboradi. Hammasi Per mudirligidagi sanoat fizikasi va kimyo maktabi laboratoriyasidan Mariyaga tajribalar uchun burchak ajratilishidan boshlanadi.

Ba’zi manbalarda Mariya malla sochlari va sarvqomatligi bilan Perning e’tiborini tortgani aytilsa-da, aslida ular bir-biriga intellektual jihatdan uyg‘un edi — yosh va istiqbolli polyak qizi zakiyligi bilan tajribali fransuz tadqiqotchisini o‘ziga rom etgan, nafaqat uning laboratoriyasidan, balki qalbidan ham joy egallagandi. Ammo Per Kyurining qizning qo‘lini so‘rash borasidagi birinchi urinishi muvaffaqiyatsiz tugadi — Polshaga qaytish fikridan hali qaytmagan Mariya unga rad javobini beradi.

Ammo bu rad javobi Perni to‘xtatmaydi — u Mariyaga bo‘lgan tuyg‘ulari jiddiyagini isbotlash maqsadida u bilan birga Polshaga birga ketishga tayyorligini ham ma’lum qiladi. 1894-yil yozida Per uydagilari bilan ko‘rishish uchun Varshavaga ketgan sevgilisiga tinimsiz xat yozadi. oktabrda Parijga qaytgan Mariya nafaqat hamkasblikda, balki umr yo‘ldoshlikda ham Perdan yaxshiroq nomzod bo‘lmasligiga komil ishonch bilan unga turmushga chiqishga rozilik beradi. Ularning to‘yi 1895-yil yozida bo‘lib o‘tadi. Ikki yil o‘tib ularning to‘ng‘ich qizi Iren dunyoga keladi. Ammo bu Mariyaning ilmiy faoliyati to‘xtashiga sabab bo‘la olmaydi — bunda unga eri Per va nafaqadagi qaynotasi katta yordam beradi. Taxminan shu vaqtda u ilmiy ishi uchun mavzu qidirib, Vilgelm Rentgen va Anri Bekkerelning tadqiqotlariga qiziqib qoladi va ishni o‘sha vaqtda ma’lum bo‘lgan kimyoviy elementlarning radioaktivligini o‘rganishdan boshlaydi.

1898-yilga kelib u nafaqat uran, balki toriy va uning boshqa birikmalari ham nur taratishini aniqlab, buni “radioaktivlik hodisasi” deb ataydi (qayd etish joiz, bugungi kunda saratonni aniqlash va davolashda radioaktiv nurlardan keng foydalilanadi). Keyinroq turmush o‘rtog‘i Per ham qo‘shilgan tadqiqot doirasida u nasturan (uraninit)dan ikki yangi element ajratib oladi. Ularning biriga radiy, ikkinchisiga esa Mariyaning vatani — Polsha sharafiga poloniy deb nom beriladi.

Foydanalingan adabiyotlar.

1. “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi “ - 2002-yil- 3-bob.
- 2.“ Moziydan sado” – ilmiy-amaliy,ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
- 3.“ Ensiklopedik lug‘at” 1991-yil.

ISSN:3060-4567 Modern education and development

“ Madaniyat gazetasi “ – O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi nashrining
2023-yil nashrlari